



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

KASBIY MANSUBLIKNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Atadjanova Nodirabegim Nasimxo‘ja qizi

*Qo‘qon Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti Xorijiy tillar nazariyasi kafedrasida
assistent o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy mansublik tushunchasining lingvistik xususiyatlari nutq faoliyati doirasida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida turli kasb vakillariga xos bo‘lgan leksik, semantik hamda pragmatik belgilar aniqlanib, ularning nutqda ifodalanish usullari tadqiq qilindi

Kalit so‘zlar: kasbiy mansublik, kasbiy nutq, ijtimoiy guruh, kasbiy rivojlanish, nutq, diskurs, sotsiolingvistika, kasbiy ijtimoiylashuv, rasmiy guruh, norasmiy guruh, siyalari.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ

Атаджанова Нодирабегим Насимхужа кизи

*Кокандский государственный университет, факультет иностранных языков,
кафедра теории иностранных языков, ассистент-преподаватель; доктор философии
(PhD) по филологическим наукам*

Аннотация

В данной статье лингвистические особенности понятия профессиональной принадлежности проанализированы в рамках речевой деятельности. В ходе исследования были выявлены лексические, семантические и прагматические признаки, характерные для представителей различных профессий, а также изучены способы их выражения в речи.

Ключевые слова: профессиональная принадлежность, профессиональная речь, социальная группа, профессиональное развитие, речь, дискурс, социолингвистика, профессиональная социализация, формальная группа, неформальная группа.

LINGUISTIC FEATURES OF PROFESSIONAL AFFILIATION

Atadjanova Nodirabegim Nasimxo‘ja qizi

*Kokand State University, Faculty of Foreign Languages, Department of Foreign
Language Theory, Assistant Lecturer; PhD (Doctor of Philosophy) in Philology*

Abstract

This article analyzes the linguistic features of professional affiliation within the scope of speech activity. The study identifies lexical, semantic, and pragmatic markers characteristic of various professional groups and analyzes how these markers are manifested in speech.

Keywords: professional affiliation, professional discourse, social group, professional development, speech, discourse, sociolinguistics, professional socialization, formal group, informal group.

Zamonaviy tilshunoslikda til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalasi muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning ijtimoiy mavqei, madaniyati, dunyoqarashi va kasbiy mansubligini ifodalovchi muhim ijtimoiy-belgili tizimdir. Xususan, kasbiy faoliyat jarayonida shakllanadigan nutqiy xususiyatlar, terminologik birliklar va kommunikativ strategiyalar tilning ijtimoiy tabaqalanishini namoyon etadi. Kasbiy mansublik til birliklarining tanlanishi, ularning semantik, stilistik va pragmatik jihatdan qo‘llanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Turli kasb

egallari nutqida uchraydigan maxsus terminlar va nutq qoliplari muayyan kasbiy muhitga xos lingvistik belgilarni yuzaga chiqaradi. Bu holat kasbiy diskursning shakllanishiga va tilning funksional imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Kasbiy mansublikning lingvistik xususiyatlarini o'rganish sotsiolingvistika, pragmalingvistika va diskurs tahlili nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar til birliklarining kasbiy kommunikatsiyasidagi vazifasini aniqlash, kasbiy nutqning o'ziga xos belgilarini tavsiflash hamda til va kasb o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishga imkon beradi. Mazkur maqolada kasbiy mansublikning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning nutqiy namoyon bo'lish shakllari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Ye.P.Yermolayeva, B.Shneyder, D.I.Zavalishina, N.L.Ivanova, Ye.V.Koneva kabilarning ilmiy ishlari [1] kasbiy mansublik muammolari tadqiqiga bag'ishlangan E.Erikson, M.V.Zakovorotnaya, N.O.Sadovnikova, Yu.P.Povarenkov, Ye.I.Giniatullina va boshqalar kasbiy mansublik inqirozi masalasini tadqiq qilganlar. O'zbek tilida ham kasbiy mansublik muammosi, asosan, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida o'rganilgan bo'lsa-da [2], tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Vaholanki, ushbu konsepsiyaning lingvistik jihatlarini fanlararo integratsiyaning yangicha tamoyillari asosida o'rganish davr talabidir.

Kasb-kor darajasiga qo'yiladigan talablarning kuchayishi professional mas'uliyat hissi, professional bilim va mahoratga o'rgatish tartibi, yangi iqtisodiy sharoitlarda yangi professional bilimlarni egallash zaruriyatga aylanishi bilan bog'liq tarzda professionalizm mavzusi nihoyatda dolzarb masalaga aylandi. Zamonaviy sharoitda kasb nafaqat moddiy farovonlikka erishish vositasi, balki shaxsni ijtimoiy ro'yobga chiqarishning yetakchi sohasiga aylanib bormoqda. Yaqingacha mehnat psixologiyasi, kasbiy tanlov va ish qobiliyati, mehnatga layoqat va hatto faoliyatning motivatsion-shaxsiy bazasini ta'minlash muammolari bilan shug'ullanar; bu barcha jihatlar o'zgarmas makroiijtimoiy munosabatlar bilan deyarli bog'lanmasdi.

Shaxsiy sifatlar, bilim va mahorat, intellektual yoki kasbiy qobiliyat, madaniy daraja kabilar shaxsni farqlovchi belgilar sanaladi. Ana shu belgilovchi jihatlar qatorida kasbiy faoliyat ham har bir inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Kasb-kor tushunchasi insonning o'z kuchi va imkoniyatlarini qo'llash, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish usuli sifatida har bir shaxsga xos individual shaklga ega. Inson kasbiy faoliyat bilan shug'ullanar ekan, bir tomondan moddiy ehtiyojlarini qoplash uchun zamin yaratsa, ikkinchi tomondan o'zi bilan ishlayotgan hamkasblari bilan yaqin aloqada bo'lish, o'zaro fikr almashish, maslahatlashish, bir-birlarini yangiliklardan xabardor qilish va boshqa tabiiy ehtiyojlari asosida o'zaro muloqotga kirishadi.

Kasbiy mansublik – shaxsning ma'lumoti, kasbiy ko'nikmalari va kasbiy madaniyati bilan, shuningdek, ushbu shaxsni "o'ziniki" deb belgilaydigan kasbiy jamoatchilikka mansubligini anglashi. Kasbiy mansublik – bu kasbiy ijtimoiylashuv natijasidir va insonda professional "men"i shakllanishi nazorat qilinadigan jarayon. Kasbiy ijtimoiylashuv, jarayonida shaxs ma'lum kasbiy bilim va ko'nikmalar, kasbiy tajriba to'plash, me'yor va qadriyatlarni, professional jamoa tilini o'zlashtirib, tegishli guruh tarkibiga kirib boradi. Kasbiy ijtimoiylashuvning o'ziga xos xususiyati shundaki, allaqachon shaxs sifatida shakllangan inson tomonidan amalga oshiriladi va u ma'lum kasbiy faoliyatni taxmin qiladi. Kasbiy mansublik ham kasbiy ta'lim, ham kasbiy faoliyat bilan bog'liq [3].

Ilgari xalqimiz oddiy kasb-kor, mayda hunarmandchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Odamlarning kundalik turmush tarzi, yashash sharoiti, tirikchilik manbai bevosita kasb-kori bilan bog'liq bo'lgan.

Chol lablari bilan bir parcha eski charmni ho'llab turib dedi:

– O'g'lim, besh bachkini pullab, ip, mum, shirach, lak olamiz, xo'pmi?! Uyda bir oz teri bor. Ammo tagcharm yo'q. Bunga ham bir iloj topib qo'ydim. Qanday? O'tgan yil Xudo yarlaqab, o'zimga mahsi tikkan edim. Bo'zchi belboqqa yalchimas, kulol mo'ndiga:

eshitganmisan?Mahsini uch kun hayitda kiyib, saqlab qo'ygandim, ana uni pullab, tagcharm olamiz. Ish yana maromiga keladi. (Oybek "Qutlug' qon")

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti natijasida o'sha mavjud kasb-korlar tizimi ham murakkablashib, kasbiy mansublik doirasi kengayib ketganligi yangicha kasbiy munosabatlarni yuzaga keltirdi. Masalan, dehqonchilikda faqat ekish-tikish ishlari bilan shug'ullanilgan bo'lsa, bugunga kelib, sohaning ilmiy-amaliy, texnik omillari paydo bo'ldiki, murakkab kasbiy jarayonlar strukturasiga aylandi.

Yozuvchi O'ktam Usmonovning "Girdob" romanida paxtachilik sohasiga oid muammolar badiiy talqinda o'z ifodasini topgan. Tabiiyki, asar qahramonlari ham shu soha vakillari.

Paxtakor brigadir Mahamat Turdiboyev tilidan:

Azizjon yangi ish qilyapti ...Uning aytishicha, mamlakatda hozir olti mingdan ziyod g'o'za navining urug'i saqlanarmish. Olti ming-a! Olimlarga bu katta dastak ekan. Azizjon ham o'ziga yoqqan bitta urug'ni tanlab olib, uni hozir ekayotgan g'o'zamizga chatishtirib ko'ryapti. Azizjonning kelganiga ham yetti yil bo'lyapti... Yashirishning nima hojati bor, kamina ham naq bulturgacha Azizjonni ko'rganimda salom-alik qilardim-u... biroq yuzi bir burda, ko'zlari kirtayib yuradigan mana shu yigitga zimdan tikilib, ichimda unga achinardim: "Bechora namuncha o'zini urintirmasa...Oqpalak degan maxluq bu boyoqishning o'zini ham g'o'zaga qo'shib yeb qo'yishiga sal qopti-ku..." deb o'ylardim... Agar iloji bo'lganda-yu, yanagi yildanoq dalalarimizning bariga shu Azizjonning navidan ekardim.

Seleksioner olim Aziz Qosimov tilidan:

Hammaga ma'lumki, mavjud "F"navi, ayniqsa, keyingi yillarda vilt bilan juda qattiq zararlana boshladi. Bu kasallik 1948-49-yillardayoq yoyilgan edi. Buning sababi paxta maydonlariga asosan bir turdagi nav ekilib, viltning tez yoyilishi, aytish mumkinki, ommaviy tus olishiga qulay sharoit yaratib berdi... To'xtovsiz ish olib borildi! Lekin ochig'ini aytganda, fanning cheksiz imkoniyatlaridan juda tor, faqat bir yoqlama foydalanildi... Biz mana shu tajriba natijalaridan saboq olib, hamda seleksiya nazariyasining boshqa muhim yo'llariga tayana turib, o'zimizdagi madaniy navni yovvoyi mexicanum naviga chatishtirish yo'lini tanladik. (O'.Usmonov "Girdob")

Ko'rinadiki, bir xil mavzu doirasida dehqon va olimning nutqi bayonida tafovutlar bor. Dehqon o'z fikrini oddiy, xalq tilida ifodalasa, olim ilmiy faktlar, akademik bilim asosida so'z yuritadi. Mahamat chatoq g'o'za kasalligini xalq iborasi bilan "oqpalak" deb, Aziz Qosimov esa ilmiy tilda "vilt" deb nomlaydi. Shuningdek, olim nutqida "'F"navi", "seleksiya nazariyasi", "madaniy nav", "yovvoyi mexicanum navi" kabi ilmiy atamalar keng qo'llangan. Shu bilan birga so'zlovchilar bitta kasbiy mansublikka oid guruh vakillari bo'lganligi bois har ikkalasi foydalangan umumiy so'zlar ham mavjud: g'o'za, urug', nav kabi. Bunday nutqiy holatlar bir kasbiy ijtimoiy guruh doirasida yana kichik ichki guruhlarga bo'linish (tizim ichida tizim) tamoyili amal qilishini ko'rsatadi.

Mutaxassisning kasbiy rivojlanishidagi ichki salohiyatini shakllantirish shaxsning ijtimoiy-kasbiy guruh va mehnat vositalari bilan o'zaro faol aloqadorligi natijasidir. Bunday holda shaxsning ruhiyati boyib boradi. Faoliyat natijasi nafaqat moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish, balki shaxsni rivojlantirish hamdir.

"Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday kasbiy faoliyat ham shaxsni rivojlantirishga xizmat qilavermaydi. Shaxsiyatni boyitmaydigan, aksincha, uni deformatsiya qiladigan ko'plab professional ish turlari ham mavjud. Ko'p narsa shaxsiyatning o'ziga, uning kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabatiga bog'liq" [4].

Sharifa opa, farrosh, 56 yosh: Mehnatning aybi yo'q. O'g'rilik, zinokorlik, birovning moliga ta'ma bilan qarash ayb, gunoh! Farroshlik, ko'cha-ko'y, jamoat joylarini toza tutish gunoh emas. Bunday ishning isodi yo'q! Tan olish kerak, birov men farrosh bo'lay deb, niyat qilmaydi. Qo'l kaltalik, ehtiyojmandlik ortidan shu ishga rozi bo'lganmiz. Biz majburiyat

yuzasidan qilayotgan ishimiz bilan qancha ko'ngillarni obod qilamiz, xotirjam qilamiz. Ayrimlar farroshlarga past nazar bilan qarashadi, ayniqsa, yoshlar uchun farrosh xuddi xizmatkor, o'zim ishlaydigan tashkilotda asosan yoshlar faoliyat yuritishadi. Ularning farroshlar mehnatiga bepisandliklari ko'nglimni og'ritadi. Aslida undaylar bunaqangi xatti-harakatlari bilan qay darajada tarbiya ko'rganlari, ma'naviy dunyosining nechog'li qashshoqligini ko'rsatishadi. (Internetdan)

Ye.P.Yermolayeva shundan kelib chiqadiki, kasbiy mansublik uzoq muddatli shaxsiy va kasbiy rivojlanish mahsuli bo'lib, u faqat kasbni egallashning yetarlicha yuqori darajalarida rivojlanadi va kasbiy jarayonning asosiy elementlarini barqaror muvofiqlashtirish, ya'ni "men"ning haqiqiy va ideal professional obrazlarini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi [5]. Zero, kasbiy mansublik tushunchasi yillar davomida inson hayotiga shu qadar singib ketadiki, natijada hamkasblari, jamoadoshlari oila, farzandlar, qo'ni-qo'shnilar kabi umrining bir qismiga aylanib ketishi mumkin.

– Eslab, kelganlaring uchun rahmat! Shuning o'zi bir davlat! Endi eshit – senga bir iltimosim bor edi.

– Nimaydi? – Xolmat cho'ntagidan ro'molcha olib ko'z yoshlarini artidi.

– Ilojini qilib, yangi o'quv yilidan mening sinfimni o'zing o'qit. Hammasi bo'ladigan bolalar. Hozir ko'plar nayrangboz bo'lib ketgan, nomigagina dars o'tadi. Hatto "konspekt" yozishga erinishadi. Ular o'qitgan bolalardan nimani ham kutish mumkin? Hali sen bilan biz o'qitgan bolalardan "mana men" degan o'zbekning olimlari, shoirlari, yozuvchilari, dunyo kezar ishbilarmonlari chiqsa, ajabmas. O'shanda ular sen-u meni boshlang'ich sinfda o'qitgan edi, deb yodga olishsa, shuning o'zi kifoya.

– Shunday dedi-da, domla ko'zlarini katta-katta ochib, shogirdiga tikildi va picha tin oldi, so'ng odaticha "tushundingmi?" deb qo'shib qo'ydi. Xolmat ustoziga bosh siltab "ha" ishorasini qildi. (Adham Damin "Hayot va o'lim")

"Kasbiy rivojlanish jarayonida ikki xil ziddiyat paydo bo'lishi mumkin: 1) shaxs va tashqi muhit o'rtasida; 2) shaxsning ichki ziddiyati shaxsiyat rivojlanishini belgilaydigan asosiy ziddiyat mavjud shart- sharoit, shaxs xususiyatlari va kasbiy faoliyatning obyektiv talablari o'rtasidagi ziddiyatdir" [6].

– Haliyam institutda dars beryapsanmi? – so'radi Amir negadir butunlay boshqa mavzuga ko'chib.

– Ha, haftada ikki kun institutga boraman, qolgan vaqt bo'shman. Bir-ikki joydan taklif bor, o'sha yoqqa o'tib ketsammi, deb turibman. Institutdagi ahvol boshqacha. Talabalar sizni eshitmaydi. Javdirab qarab turishadi-yu, fikr-u xayollari boshqa yoqda...

– Ishni almashtirmoqchimisani?

– Bilmadim, hech bir qarorga kelolmayapman. Xabaringiz bor, esimni tanibmanki, tarix bilan shug'ullanaman... Endi pishib, qilishim mumkin bo'lgan ishlarga yaqinlashganimda, boshqa ishga o'tib ketish munofiqlikdek ko'rinyapti.

– Nima, boshqa joyda o'z sohang bo'yicha ish berishmaydimi?

– Qaniydi, qo'lingdagi ish ko'nglingdagiga muvofiq kelsa...

– Hozircha shoshganim yo'q. Tavba, odamlar bir-birlari bilan urishib yurishsa, men doim o'zim bilan o'zim jang qilaman. Boshqalar bilan olishishga menda na fursat bor va na rag'bat... (Ulug'bek Hamdam "Muvozanat")

M.V.Zakovorotnayaning "Профессиональная идентичность как ключевой аспект современной социальной идентичности" nomli maqolasi kasbiy mansublik tushunchasining G'arb falsafasi nuqtayi nazaridan o'rganilishi tarixi hamda bozor iqtisodiyotining bugungi globalashuv jarayonidagi asosiy masalalariga, qaratilgan. Jumladan, maqola muallifi zamonaviy kommunikatsion vositalar orqali muloqotda odamlar uchun umumiy til, tajriba, qadriyatlar, ijtimoiy makon va vaqtni o'rtoqlashish va rivojlantirish imkoniyatlari nihoyatda kengayganligi xususida fikr yuritadi [7].

Darhaqiqat, internet tarmoqlarida muayyan kasbiy soha vakillarining rasmiy va norasmiy guruhlari o'ta faoldir. Telegram kanalining o'zbek segmentida maktab o'quvchilaridan tortib "Haydovchilar", "Kasbdoshlar", "O'qituvchilar", "Shifokorlar", "Vodiy quruvchilari", "Arxitektura.uz", "Boksyorlar" kabi deyarli barcha kasbiy guruhlarni uchratish mumkin. Masalan, "Ustalar kanali" guruhining 50 mingdan ziyod a'zolari mavjud bo'lib, "Lomboz, yangicha usulda...", "Dunyoning eng chiroyli binolari top 10 taligi", "Ustasiga farqi yo'q...", "Ustalar uchun kerakli uskunalar!" kabi rang-barang kasbiy ma'lumotlar berib borilayotgani, tajribalar o'rtoqlashilayotgani ijobiy holdir. Biroq, afsuski, shaxsiy yozishmalarda til me'yorlariga umuman rioya qilinmaydi. Aynan, quruvchilikka oid guruhlarda 90 foiz atamalar va nomlar ruscha-o'zbekcha aralash-quralash, varvarizmlar, chala-chulpa kalkalash holida qo'llanadi.

1) Noldan pod klyuch BASSEYN FONTAN UCHOK BARBEKYu KAMEN i Kafel kilamiz xizmat istalgan shaklda Ulugbek master. (Telegram kanali, "Ustalar № 1 Toshkent" guruhi)

2) Assalomu alaykum 0 Dan uy quroladigan Biton ishlarini tushunadigan brigada bolsa lichkaga yozinglar Ish Toshkenda (Telegram kanali, "Ustalar № 1 Toshkent" guruhi)

3) Asalomu Alaykum EVRO REMONT QILAMIZ ABOY MALYAR GIPSAKARTON TARKETKA NALIVNOY POL KAFEL TRAVERTIN ELEKTRIKA SANTEXNIKA NATIJOY PATALOK DA KULYUCH TAJRIBALI USTALAR (Telegram kanali, "Ustalar № 1 Toshkent" guruhi)

Har uchala matnda ham tinish belgilari umuman qo'llanmagan.

Ayollarga xos "Chevarlar" kasbiy guruhida ham xuddi shu holni kuzatish mumkin.

1) Assalomu aleykum ishchi kerak

Malakali tikuvchilar Ayol va Qizlarni taklif qilamiz Uğilbollaniyam ishga olamiz Oyligi kilishilgan holda

Murojat uchun

Manzil: Namangan shahar

2) xozir kassoy fason bn kilot shimlik fasonlar va izmirlar chqadi bugun klient bomoqchi boganlar lichkaga

3) Bozorda siz tikbergan pulga tayyor xalat beradiyu diydiganlar diqqatiga bozorda bunaqa zamoq qoyilmedi Bunaqa ribana manjet qoyilmedi Ili zakaz nma uchun zakaz aloxida bitta oziz uchun tikilgani uchun zakaz boladi

Nisbatan ziyoli qatlam – fiziklar, matematiklar, biologlar kabi kasbiy guruhlarda o'qituvchilar nutqida nisbatan savodxonlikka rioya qilinsa-da (1), asosan, o'quvchi va talabalar yozma nutqi me'yordan chekinishlarga to'la (2).

1) Ikkala funksiyani tenglang va ikkiala funksiyani kesishish nuqtalarini toping. Keyin ikki nuqta orasidagi masofani topish formulasiga qo'ying.

2) Lickamga tawen javob qib quyaman zaryad omasak bumidi telim va man (Telegram, "Fiziklar" guruhi)

Ushbu tadqiqot natijalari kasbiy mansublikning nutqdagi lingvistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot doirasida o'rganilgan muayyan kasb egalarining nutqidagi kasbiy belgilar tahlil qilindi. Kasbiy mansublik nutqda ijtimoiy maqom va auditoriyaga moslashish bilan ifodalanadi. Dehqonlar nutqida ko'proq amaliy tushuntirish va maslahat berish shakli mavjud. Hunarmandlar nutqida esa ko'proq texnik ko'rsatmalar va ish jarayonini tavsiflash ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi natijalar kasbiy mansublikning nutqda o'ziga xos lingvistik belgilar orqali namoyon bo'lishini, shuningdek, kasb turiga qarab nutq uslubining faqrlanishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hunarmandlar, dehqonlar, olimlar va boshqa kasb egalar nutqida kasbiy mansublik lingvistik jihatdan turlicha namoyon bo'ladi. Yuqorida yozuvchi O'ktam Usmonovning "Girdob" romanidan paxtachilik sohasiga oid muammolarni

badiiy talqinda o'z ifodasini topganligi haqida misollar keltirilgan. Tabiiyki, asar qahramonlari ham shu soha vakillaridir.

Shundan ko'rinadiki, bir xil mavzu doirasida dehqon va olimning nutqi bayonida tafovutlar bor. Dehqon o'z fikrini oddiy, xalq tilida ifodalasa, olim ilmiy faktlar, akademik bilim asosida so'z yuritadi. Bizning natijalarimiz ham shuni tasdiqlaydiki, kasbiy mansublik nutqda nafaqat terminologiya, balki nutq uslubi va pragmatik elementlar orqali ifodalanadi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar ham muhim ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday kasbiy faoliyat ham shaxsni rivojlantirishga xizmat qilavermaydi. Shaxsiyatni boyitmaydigan, aksincha, uni deformatsiya qiladigan ko'plab professional ish turlari ham mavjud. Ko'p narsa shaxsiyatning o'ziga, uning kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabatiga bog'liqligi xususida ham misollar keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy mansublik nutqda ijtimoiy va lingvistik belgilar orqali o'zini namoyon qiladi.

Ushbu tadqiqot kasbiy mansublikning nutqdagi lingvistik xususiyatlarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy mansublik nutqda kasbga xos terminologiya, nutq uslubi va pragmatik vositalar orqali ifodalanadi. Nutqdagi bu lingvistik elementlar shaxsning kasbiy identifikatsiyasi va ijtimoiy guruh ichidagi kommunikativ faoliyatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy mansublik lingvistik jihatdan shaxsning kasbga oid bilim va ko'nikmalarini, shuningdek, nutq orqali ijtimoiy maqomini aks ettiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kasbiy nutqning tahlili orqali kasbiy mansublikning lingvistik ko'rinishlarini chuqurroq tushunish, shuningdek, nutq va kasb o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash mumkin.

Natijalar kasbiy nutq va sotsiolingvistika sohalarida nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda kasbiy mansublik va nutq o'rtasidagi munosabatlarni yanada kengroq tadqiq etish uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шнейдер Л.Б. Личностная, гендерная и профессиональная идентичность: теория и методы диагностики. – Москва: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та, 2007.
2. Ермолаева Е.П. Психология реализации профессионала в условиях социально-экономических изменений автореф.дисс...докт психол.наук. – М.: 2009.
3. Завалишина Д.Н. Психологический анализ оперативного мышления. – М.: Наука, 1985.
2. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М., 1996.
3. Жалилова С.Х., Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. Касб психологияси. – Тошкент: 2010.
4. Перинская Н.А. Профессиональная идентичность...// Энциклопедия гуманитарных наук. 2018 – №2 – С. 209-211
5. Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. – 2-е изд., перераб., доп. – М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – С. 15.
6. Куприянчук Е. В. Теоретико-методологические основы исследования профессиональной идентичности. // <https://www.sgu.ru/sites/default/files/textdocsfiles/2014/03/13/kupriyanchuk.pdf>
7. Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. – 2-е изд., перераб., доп. – М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – С. 15.
8. Заковоротная М.В. “Профессиональная идентичность как ключевой аспект современной социальной идентичности”//Вестник АГУ, выпуск №3 (144) 2014. – С. 13-22.